

**“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YUGAYEV SHAVKAT MANSUROVICH

**JINLASH JARAYONIDA TOLALI O‘LIKNI SAMARALI TOZALASH
USKUNASINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnik tizimlar

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Yugayev Shavkat Mansurovich

Jinlash jarayonida tolali o‘likni samarali tozalash uskunasini ishlab
chiqish..... 3

Югаев Шавкат Мансурович

Разработка эффективного оборудования для очистки
волокнистого улюка, выделяемого в протессе джинирования.. 21

Yugayev Shavkat Mansurovich

Development of effective equipment for the purification of fibrous
uluk released during the gining process..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YUGAYEV SHAVKAT MANSUROVICH

**JINLASH JARAYONIDA TOLALI O‘LIKNI SAMARALI TOZALASH
USKUNASINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnik tizimlar

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3682raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz muhandislik-texnologiyainstitutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) "Paxtasanoat ilmiy markaz" AJ huzuridagi Ilmiy kengash web-sahifasida (www.paxtasanoatilm.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Nazirov Raxmatjon Rasulovich**
texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar: **Rosulov Ruzimurod Xasanovich**
texnika fanlari doktori, professor

Madraximov Dilshodbek Usupjonovich
texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **Jizzax politexnika instituti**


Dissertatsiya himoyasi "Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati huzuridagi DSc.30/30.11.2021.T.141.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "22" июль soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100070, Toshkent sh., Shota Rustaveli ko'chasi, 8-uy. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz. ("Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati binosi, 3-qavat, majlislar zali).


Dissertatsiya ishi bilan "Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (35 raqami bilan ro'yxatga olingan).Manzil: 100070, Toshkent sh., Shota Rustaveli ko'chasi, 8-uy. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "12" iyul kuni tarqatildi.
(2024-yil "12" iyuldagi № 35 raqamli reyestr bayonnomasi).




T.M.Quliyev
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.


M.R.Mo'minov
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.f.d., k.i.x.


R.Sh.Sulaymonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi o'rinbosari, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik va yengil sanoatda ishlatiladigan tabiiy tolalar ichida paxta tolasi asosiy xomashyo hisoblanadi. Dunyo statistikasi va Paxta bo‘yicha Xalqaro konsultativ qo‘mita (ICAC)ning so‘ngi ma‘lumotlariga ko‘ra “2021-2022 yil mavsumida paxta tolasini eksportyorlari to‘rttaligiga AQSh, Xindiston, Avstraliya va Braziliya hamda importyorlar Bangladesh, Vetnam, Xitoy, Turkiya va Indoneziya mamlakatlari kiradi”¹. Paxta hosilini yig‘ishtirish va paxtani begona iflos aralashmalardan tozalash uchun energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida yetishtirilgan paxtadan olinadigan tola tarkibida ma‘lum miqdorda tolali o‘lik va begona iflos aralashmalar bo‘lishini hisobga olsak, jinlash jarayonida ajraladigan tolali o‘likni tozalashni sifatli amalga oshiradigan uskunalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan tolali o‘likni tozalash uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta xom ashyosini qayta ishlashning yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan yangi avlod uskunalarini zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hamda fan va texnikaning so‘nggi yutuqlaridan foydalangan holda yaratish kabi mavjud muammolar yechimini topishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, paxta tozalash korxonalarida tolali o‘liklarni tozalash jarayonlarini mahsuldorligini oshirish, uskunalarni resurslarni tejaydigan uzellar bilan ta‘minlash katta ahamiyatga ega, ularning yordamida keyinchalik mahsulot miqdori va sifatini yaxshilash vazifalarini optimallashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta sanoatini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini qayta jihozlash va modernizatsiya qilish, paxta xomashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlash rentabelligini oshirish, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillardagi mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, jumladan “...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yangi ichki mahsulotda sanoatsiyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinib, bunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish...”² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, 2022 yil 28 yanvardagi PF60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-sonli “Paxtachilik soxasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 16 noyabrdagi PQ-16-son

¹ Cotton World Statics. <https://www.statista.com>; <http://www.ICAC.org>;

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillardagi mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

«Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 iyuldagi PQ-308-son «Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijning yetakchi tadqiqot markazlari va universitetlari, shu jumladan Samuel Jackson Incorporated, USDA Ginning Cotton Research Unit, Texas Tech University, (AQSh), Central Institute for Research on Cotton Technology, Nipha Exports Pvt. Ltd, Bajaj Steel Industries Limited (Xindiston), Cotton research and devolepment corporation (Avstraliya), National Research Center for cotton processing engeeniring and technology, Pakistan Cotton Standards Institute (Pokistan), Toshkent tekstil va yengil sanoat instituti, «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ (O‘zbekiston), ular paxta xom ashyosini jinlash, tola tozalash va tolani tozalashda ajraladigan tolali o‘likni tozalash texnikasi va texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida keng shug‘ullanishgan. Jahon ilmiy markazlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan, tolali o‘lik va momiqni tozalashda uning sifatini oshiradigan uskunalar va texnologiyalarni takomillashtirish sohasida olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida, xususan, quyidagi natijalarga erishildi: tolali maxsulotlarni iflos aralashmalardan samarali tozalash texnologiyasi (Texas Tech University, AQSh, Bajaj Steel Industries Limited, Hindiston) ishlab chiqildi, tolali o‘lik va momiqni tozalash uchun uskunalar (Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ, O‘zbekiston), tomonidan ishlab chiqilgan.

Respublikamizda paxtani jinlash jarayonida olinadigan tolali o‘liklar va momiqni miqdori, tarkibi o‘rganish, tozalash usullari va mashinalarini ishlab chiqish va tadqiq etish bilan mahalliy olimlardan-Kotov Yu.S., Asanova B.B., Xudkovskiy B.A., Fazildinov S., Kattaxodjayev R.M., To‘xtayev M.T., Sapon Yu.A., D‘yachkov V.V., Djamalov R.K., Sulaymonov R.Sh., Rakipov V.G. va boshqalar shug‘ullanishgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida asosan momiq mahsulotini tozalagichlari konstruksiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish ishlari amalga oshirilgan, lekin jinlash jarayonida ajraladigan tolali o‘likni iflosliklardan tozalash effektini oshirish maqsadida tozalagichlarni mahalliy analoglarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bo‘yicha ALM-20230505912 “Tola tarkibidagi iflos aralashmalarni tozalovchi, energiya

resurstejamkor va tola yo'qolishini kamaytiruvchi yangi tola tozalash mashinasining sanoat namunasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ishlab chiqilgan paxta homashyosini jinlash jarayonida ajralib chiqadigan tolali o'likni tozalashda takomillashtirilgan ishchi organli texnologik jarayonini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shnekli-qoziqli vintsimon o'rnatiladigan ishchi organli tolali o'likni mayda iflosliklardan tozalash uchun takomillashtirilgan uskunasini konstruksiyasi ishlab chiqish;

tolali o'likni paxtani jinlash va tola tozalash texnologik jarayonidan keyin bevosita titilgan xolatda mayda iflosliklardan tozalashning texnologik sxemasini ishlab chiqish;

shnekli-qoziqli tozalagichning ish unumdorligini yo'naltiruvchi qoziqchalar tezligi, qoziqchalar qadami hamda tolali o'likni xajm og'irligiga bog'liq ravishda nazariy va tajribalar asosida o'rganish;

paxta tozalash korxonalaridagi mavjud va ishlab chiqilgan va asoslangan parametrlarida tayyorlangan paxtani jinlash jarayonida ajraladigan tolali o'likni tozalash uchun takomillashtirilgan ishchi organli tolali o'likni tozalash uskunasini qiyosiy o'rganish, ularni texnologik jarayonining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida ishlab chiqilgan paxta homashyosini jinlash jarayonida ajralib chiqadigan tolali o'likni tozalashda takomillashtirilgan ishchi organli texnologik jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida paxtani jinlash jarayonida ajraladigan tolali o'likni tozalash texnologik jarayonining qonuniyatlari va rejimlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda jarayonlarni statik va dinamik modellashtirish, differensial tenglamalarni analitik va sonli yechish, to'liq faktorli eksperiment yordamida regression modellar qurish, tajriba natijalarini qayta ishlash, kuzatish, o'lchash, solishtirish, baholash va optimal yechimlarni aniqlash uchun tasodifiy qidiruv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tolali o'likni paxtani jinlash va tola tozalash texnologik jarayonidan keyin bevosita titilgan holatda mayda iflosliklardan tozalashning texnologik jarayoni asoslangan va uni amalga oshiruvchi texnologik uskunasini ishlab chiqilgan;

tolali o'likni mayda iflosliklardan tozalash uchun takomillashtirilgan uskunasini shnekli-qoziqli vintsimon o'rnatiladigan ishchi organli konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tolali o'likni shnekli-qoziqli vintsimon o'rnatiladigan ishchi organi bilan o'zaro ta'sirlashish davomida tolali o'lik bo'lakchasiga yo'naltiruvchi qoziqcha yuzasi bo'ylab ta'sir qiluvchi normal bosim kuchini tolali o'lik massasiga bog'liklik differensial tenglamalari aniqlangan;

yo'naltiruvchi qoziqchalar ta'siridan keyingi tolali o'lik tezligining qoziqchani yo'naltiruvchi burchagi ta'siridagi tiklanish koeffitsiyentiga bog'liqlik ifodasi olindi, qoziqchani yo'naltiruvchi burchagining ratsional $\varphi_3 = 15^\circ$ qiymatida tozalash samaradorligi yuqori bo'lishi aniqlangan.

Olingan natijalarning ishonchliligi ko'rib chiqilayotgan predmet sohasidagi

nazariy va eksperimental tadqiqotlar ma'lumotlarining mosligiga, paxtani jinlash jarayonida ajraladigan tolali o'likni tozalash uchun takomillashtirilgan ishchi organli tolali o'likni tozalash uskunasini tolali o'likni tozalash jarayonining matematik modellarini oqilona tanlash va tolali o'likni tozalash uskunasini ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati paxtani jinlash jarayonida ajraladigan tolali o'likni tozalash uchun takomillashtirilgan ishchi organli tolali o'likni tozalash uskunasini ifloslikdan faol aylantiruvchi ishchi organlari bilan ajratib olish bog'lanishlari va tozalash effektini ishchi organlar konstruksiyasi va ish rejimiga analitik bog'lanishlari ishlab chiqilganligi, tozalovchi ishchi organlarning ratsional joylashishini aniqlanganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tolali o'likni tozalash uskunasidan foydalanishda tolali o'likni ifloslikdan tozalash samaradorligi oshganligi va paxta tozalash korxonalarida qoniqarli darajada tozalanmayotgan tolali o'lik maxsulotlarini sifatini oshirish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani jinlash jarayonida ajraladigan tolali o'likni tozalash uchun takomillashtirilgan ishchi organli tolali o'likni tozalash uskunasini konstruksiyasini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalash uskunasini Farg'ona viloyatidagi "LUX YaN TEX" MChJ ga qarashli "Beshariq" paxta tozalash korxonasining asosiy texnologik uskunalari tizimiga tadbiq etilgan (O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasining 2024 yi 12 apreldagi №03/22-152 sonli ma'lumotnomasi). Natijada paxtani jinlash jarayonida ajraladigan tolali o'likni tozalashda ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalash uskunasidan foydalanishda tolali o'likni ifloslikdan tozalash samaradorligi mavjud tozalash texnologiyasiga nisbatan, 20–30 % ga yaxshilashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 5 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 9 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shu jumladan xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 4 ta ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiya ishi 103 betdan iborat.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslab bergan, tadqiqot maqsadi va vazifalarini shakllantiradi, tadqiqot ob'ekti va predmetini tavsiflaydi, tadqiqotni respublika fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligini ko'rsatadi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan

natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, tadqiqot natijalarini, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, haqida ma'lumot beradi.

Dissertatsiyaning birinchi "**Tolali mahsulotlarni tozalashda texnika va texnologiyalarning analitik tahlili**" deb nomlangan birinchi bobi adabiy manbalarning tahliliy sharhiga va tolali chiqindilarni iflosliklardan tozalash texnologiyasi va texnikasining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Ushbu bobda tolali maxsulotlar, momiq, o'lik aralashgan chiqindilarni tozalash texnologiyasi va texnik vositalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Tolali o'lik yoki momiqni iflos aralashmalardan tozalash texnologiyasi sohasidagi adabiyot manbalarini ko'rib chiqish ushbu yo'nalishni yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini va sanoat talablariga javob beradigan tolali o'likni tozalash mashinalarining samarali konstruksiyasini ishlab chiqish uchun chuqur nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatdi. Tolali maxsulotlarni tozalash texnologiyasi va o'likni tozalash mashinasi konstruksiyasini tozalash samaradorligini oshirish maqsadida takomillashtirish uchun texnik yechim ishlab chiqildi

Ishlab chiqilgan texnik yechimga ko'ra, paxta xom ashyosini jinlash jarayonidan ajratib olingan tola va uning tarkibidagi tolali chiqindilar tola tozalagichlarga etkazib beriladi. Tola tozalagichlarda tola tozalanish jarayonida uning tarkibidagi tolali o'lik mahsuloti iflos aralashmalar bilan birgalikda ajratib olinadi va tola tozalagichlarning tag qismidagi tasmali gorizontal konveyerga tushadi. Texnologik tizimda o'rnatilgan ikkita (yoki uchta) jin tola tozalagichlardan ajratilgan tolali o'lik va iflos aralashmalar tasmali gorizontal konveyer yordamida konveyerning oxirida yig'iladi. Shu yerga ishlab chiqilgan texnik yechimga ko'ra qiya tasmali konveyer va tolali o'likni iflos aralashmalardan tozalovchi shnekli-qoziqli barabanli tozalagich o'rnatiladi (1-rasm).



1-rasm. Tolali o'likni samarali tozalashni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan texnik echim bo'yicha texnologik jarayon va tozalagich sxemasi


Texnik yechimga asos qilib OVM tipidagi tozalagichning konstruksiyasi tanlab olindi. Faqat uning shnekli-qoziqli barabanining konstruktiv parametrlari o'zgartirilib, tolali o'likni iflosliklardan tozalash samarasini oshirish maqsad qilib olindi.

Dissertatsiyaning "**Tolali o'likni takomillashtirilgan qoziqli tozalagichda tozalash jarayonining nazariy taxlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalash uskunasi asosiy parametrlari va ish rejimlarini nazariy asoslash natijalari keltirilgan.

Tozalash organlari yuzasida momiqlarni (tozaladigan tolali mahsulotni) bir tekis taqsimlash va tarash momiqni mayda ifloslikdan tozalash intensivligini oshirishi, iflos aralashmalarini ajratish samaradorligi tozalanayotgan materialga yopishish darajasi kamayishi bilan tavsiflanishi, bunga mashinaning konstruktiv parametrlari, tozalanayotgan materialning ifloslanish darajasi va uni tozalash zonasiga yetkazib berish shartlari, yanada samarali taqsimlash va tarash bilan tozalash jarayonining to'g'ri yo'nalishi ta'sir qilishi ma'lum.

O'lik yoki momiqni iflos aralashmalardan tozalashda dastavval vint orqali harakatini tashqi kuchlar ta'sirida tahlil qilamiz

O'lik yoki momiqni iflos aralashmalarni harakatlenganda, har bir zonadagi jarayonlarni ko'rib chiqamiz. Dastavval L_1 vintdagi momiqning harakatini tahlil qilamiz.



1-shnek o'qi, 2-shnek vint yo'nalishi

2-rasm. Shnekli qoziqli tozalagich ishchi organida siljigan (tolali o'lik) nuqtani muvozanat sxemasi

Shnekli konveyer qobig'idagi tolali o'likni o'qli harakatlanishi tezligi V_1 quyidagi formula orqali aniqlanadi (2-rasm):

$$V_1 = \frac{Q}{900 \cdot \pi \cdot (D^2 - d^2) \cdot \psi \cdot \gamma \cdot C_0}, m/c \quad (1)$$

bu erda Q - tozalagichni ish unumdorligi, t/s;

D – shnekli-qoziqli barabanni tashqi diametri, m;

d – shnekli-qoziqli baraban qoplamasi diametri, m;

ψ - qoziqlararo joyini to'ldirish koeffitsienti;

γ_0 - tozalanayotgan tolali o'likni hajmiy og'irligi, t/m³;

$S_0=0,9 \div 1$ -tolali o'likni to'kilish koeffitsienti.

Qoziqlararo joyini to'ldirish koeffitsienti qoziqli-shnekli tozalagichni yuklanish qobiliyati koeffitsientidan ortiq bo'lishi kerak emas:

$$\psi = \psi_1 \cdot \psi_2 \quad (2)$$

bu erda: ψ_1 – yuklanish qobiliyatini shnekli-qozikli baraban aylanishlari soniga bog'liqligi koeffitsienti;

ψ_2 -yuklanish qobiliyatini shnekli-qoziqli tozalagichni qiyalik burchagiga bog'liqligi koeffitsenti, gorizontol xolat uchun $\psi_2 = 1$.

Tolali o'likni shnekli-qoziqli baraban qobig'ida V_a tezlikda vintsimon harakatlanishi sababli qobiqqa teguvchi tolali o'likni harakatlanuvchi vintli qoziqlarni ko'tarilish burchagini aniqlash maqsadga muvofiq. Tolali o'likni tezligi o'qli tezlik V_1 va aylanma tezlik V_a ni geometrik yig'indisidir.

Faraz qilinadiki, tolali o'likni qatlamini harakati bir tekis bo'ladi va material nuqta harakati qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Bunga yo'l qo'yish mumkin, agarda tollali o'likni ichki ishqalanishi tashqi ishqalanishdan katta bo'lsa; bir vaqtda material nuqtani muvozanati ko'rib chiqiladi va qobiqqa teguvchi material nuqta harakatlanuvchi vintli qoziqni ko'tarilish burchagini aniqlash uchun tenglama ishlab chiqiladi.

Maydonchada tolali o'lik shnekli-qoziqli barabanni aylanishida L_1 masofaga siljiydi. Tolali o'likni muvozanat tenglamasini quyidagicha yozish mumkin, (2-rasm)

$$\begin{cases} N \cdot \cos \alpha - F_{ish2} - F_{ish1} \cdot \cos \theta = 0 \\ F_{ish1} \cdot \sin \theta - G + N \cdot \sin \alpha = 0 \end{cases} \quad (3)$$

bu erda: θ - material nuqta harakatlanuvchi vintli chiziqni ko'tarilish burchagi;

α - vintli chiziqni tashqi qirra bo'yicha ko'tarilish burchagi;

mg - yuk zarrachasini og'irlik kuchi;

g -erkin tushish tezlanishi;

F_{uu1} - tolali o'likni shnekli-qoziqli baraban yuzasiga ishqalanish kuchi;

N - tolali o'lik ta'sirida shnekli-qoziqli baraban yuzasida hosil bo'luvchi reaksiya kuchi;

F_{uu2} - tolali o'likni shnekli-qoziqli barabanning qobig'ini ichki yuzasida xosil bo'luvchi ishqalanish kuchi tenglamalari quyidagicha yoziladi:

f_1 - yuk zarrachasini shnekli-qoziqli baraban yuzasiga ishqalanish koeffitsienti;

$$F_{uu1} = f_1 \cdot N ; N = G \cdot \sin \varphi = m \cdot g \cdot \sin \varphi ; \text{ga teng}$$

$$F_{uu2} = F_{uu1} \cdot f_2 = f_2 \cdot m \cdot g \cdot \cos \varphi ; \text{ga teng.}$$

Aniqlangan F_{uu1} ; F_{uu2} qiymatlarini (3) ifodaga qo'yib tolali o'likni shnekli-qoziqli baraban sirtidagi bosim kuchini aniqlaymiz. Bosim kuchi ta'sirida iflosliklarni ajratish jarayonini aniqlaymiz:

$$\begin{cases} N \cdot \cos \alpha - f_2 \cdot m \cdot g \cdot \cos \varphi - f_1 \cdot m \cdot g \cdot \sin \varphi \cdot \cos \theta = 0 \\ f_1 \cdot m \cdot g \cdot \sin \varphi \cdot \sin \theta - m \cdot g + m \cdot g \cdot \sin \varphi \cdot \sin \alpha = 0 \end{cases}$$

Bu ifodadan quyidagini aniqlash mumkin:

$$N = \frac{f_2 \cdot m \cdot g \cdot \cos \varphi - f_1 \cdot m \cdot g \cdot \sin \varphi \cdot \cos \theta}{\cos \alpha} \quad (4)$$

Shnekli-qoziqli baraban sirtida tolali o'likni baraban o'qi atrofida harakatidan tezligini quyidagicha aniqlaymiz.

$$F_{uu1} = f_2 \cdot (F_{m.q} + m \cdot g \cdot \cos \varphi) \quad (5)$$

Bu erda $F_{m.q} = \frac{m \cdot g^2}{R}$ shnekli-qoziqli baraban aylanishi natijasidagi tolali o'likning markazdan qochma kuchini ifodalaydi. Bu tenglikni (5) ifodaga qo'yib tolali o'likni shnekli-qoziqli baraban sirtidagi ishqalanish kuchini tezligiga bog'liqlik ifodasini hosil qilamiz.

$$F_{uu1} = f_2 \cdot \left(\frac{m \cdot g^2}{R} + m \cdot g \cdot \cos \varphi \right) \quad (6)$$


Xosil bo'lgan (6) tenglikni (3) tenglamaga qo'yib tolali o'likning tezligini aniqlaymiz.

$$f_2 \cdot \left(\frac{m \cdot g^2}{R} + m \cdot g \cdot \cos \varphi \right) = \frac{G - N \cdot \sin \alpha}{\sin \theta}$$

Yuqoridagi ifodadan tolali o'likni tezligini aniqlaymiz:


$$g = \sqrt{\frac{R \cdot g \cdot (\cos \varphi - \sin \varphi \cdot \sin \alpha)}{f_2 \cdot \sin \theta} - R \cdot g \cdot \cos \varphi} \quad (7)$$

(7) tenglikda tolali o'likni shnekli-qoziqli baraban sirtida harakat tezligi orqali iflosliklarni ajratishdagi qonuniyatini belgilaydi. Maple dasturi orqali grafiklarda tahlil qilingan.



$f_2=0,03, 1-m=0,005, 2-m= 0,01, 3-m=0,015$

3-rasm. Shnekli-qoziqli barabanli tozalagichdagi tolali o'lik massasi harakatlanganda, tolali o'likni shnekli-qoziqli baraban qobig'ini ichki yuzasida hosil bo'luvchi ishqalanish kuchi qoziq chizig'ining θ - ko'tarilish burchagiga bog'liq holda o'zgarishi qonuniyatlari



$f_2=0,025, 1-m=0,005, 2-m= 0,01, 3-m=0,015$

4-rasm. Shnekli-qoziqli barabanli tozalagichda tolali o'lik massasi harakatlanganda, N - shnekli-qoziqli baraban yuzasini ko'rsatgan reaksiyasining kuchini vint chizig'i R - shnekli-qoziqli barabanning uzunligiga bog'liq holda o'zgarishi qonuniyatlari:

Shnekli qoziqli barabanli tozalagichdagi tolali o'lik massasi harakatlanganda F_{uu1} -o'lik va shnekli-qoziqli barabanning qobig'ini ichki yuzasida xosil bo'luvchi ishqalanish kuchini, N - vint yuzasini ko'rsatgan reaksiyasini kuchini, θ - ko'tarilish burchagigiga bog'liq xolda o'zgarishi qonuniyatlarini $f=0,03$, $m=0,005$, $m=0,01$, $m=0,015$ kg qiymatlardagi grafiklari 3 va 4-rasmlarda keltirilgan.

Tolali o'lik massasini oshib borishi bilan F_{uu1}, N va F_{uu2} kuchlarni, material nuqta harakatlanuvchi vintli chiziqni ko'tarilish burchagi θ bog'lik qiymatini oshib borishi bilan kamayishini kuzatishimiz mumkin. Bu o'z navbatida shnekli-qoziqli barabanli tozalagich ichida, tolali o'lik massasini zichlashuv koeffitsientini kamayishiga olib keladi. Natijada tolali o'likni shnekli-qoziqli barabanli tozalagich ichidagi tiqilishlarini kamaytiradi va tolali o'lik tarkibidagi iflosliklardan tozalash samaradorligini oshiradi.

4-rasmdagi grafiklardan ko'rinadiki, tolali o'likning qisqa vaqtli turg'unlikka olib keluvchi notekis va uzlukli harakati mavjud. Amaliyotda shnekli-qoziqli barabanning diametrini 500 mm; qadami 225 mm aylanishlar soni 150 ayl/min; ekanligi, shnekli-qoziqli barabanning qobig'i tolali o'liklar orasidagi ishqalanish koeffitsientini 0,15 ga tengligini hisobga olib, 7 - formuladan foydalangan holda shnekli-qoziqli barabanning qoziqlari quyisida tolali o'lik massasi tezligi 0,32 m/s va uning uchida tezlik 0,38 m/s ga tengligini hisoblash mumkin. Tezliklardagi bunday farq shnekli-qoziqli barabanli tozalagichda tashilayotgan tolali o'lik massasini turlicha zichlashishiga va natijada tiqilishlar sodir bo'lish ehtimolini oshishiga olib keladi.


Shnekli-qoziqli barabandagi tolali o'liklardan iflos aralashmalarni ajratishda yo'naltiruvchi qoziqcha sirtidagi tolali o'lik bo'lakchalarini harakatini uzatilishi natijasida tozalash samaradorlikka erishishda ratsional parametrlar tanlab olingan. Bunda shnekli-qoziqli barabanning burchak tezligi $\omega_3 = 150 \frac{\text{aill}}{\text{min}}$ bo'lganda hamda yo'naltirgich qoziqchani yo'naltiruvchi burchagi $\varphi_3 = 15^\circ$ bo'lganda qoziqchalar sirtidagi tolali o'lik bo'lakchalarini bir tekisda uzatilishini ko'rishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning **“Tajribalarni o'tkazish metodik uslublari va tajribalarni natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishning maxsus ishlab chiqilgan uslublari, shuningdek, ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalash uskunasi parametrlari va ish rejimlarini aniqlash uchun eksperimental tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.

Paxta tozalash korxonalarida jamg'arilgan paxtaning sanoat navlariga bog'liq ravishda uni dastlabki ishlash vaqtida paxta maxsulotining 0,6-1,4 % i miqdorida tolali o'lik maxsuloti olinishi mumkin. Bu tolali o'likning asosiy qismi esa paxta tozalash korxonalarining texnologik tizimidagi tolani tozalash mashinalaridan tolani tozalash vaqtida ajralib chiqadi. Tola tozalagichlaridan ajraladigan tolali o'likning paxtaga nisbatan miqdori eng past 0,6 % ni tashkil etishini qabul qilsak, bu miqdor (tola chiqimini o'rtacha 34 % qabul qilinganida) 47,64 kg/soatni tashkil etadi. Albatta bu miqdor past navli paxta xom ashyosini dastlabki ishlash vaqtida ko'payishi muqarrar. Bundan tashqari, ajratib olinayotgan tolali o'lik tarkibidagi butun, sinik chigit, mayda va yirik iflosliklarni miqdori paxtaning yuqori navlarini dastlabki

ishlash vaqtida 57,4 % ni, paxtaning past navlarini, ya'ni IV-nav paxtasini dastlabki ishlash vaqtida 52,5 % ni tashkil etayotgani ma'lum bo'ldi. Shu sababli ishlab chiqilgan tozalagichning ish unumdorligi 300 kg/soatdan kam bo'lmasligi tanlab olindi va baza uskuna sifatida tanlangan OVM-A rusumli tozalagichlarni ish unumdorligi xam uning texnik xarakteristikasida 300 kg/soatni tashkil etishini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Tanlab olingan tolali o'likni tozalash uskunasini ishchi organi 5-rasmda keltirilganidek takomillashtirildi va asosiy parametrlari asoslandi.



a) silindsimon qoziqli variant, b) uchi ezilgan qoziqli varianti (amaldagi tolali o'likni tozalash uchun arrali baraban ham tavsiya etilgan).

5-rasm. Tolali o'lik tozalagichini takomillashtirish shnekli-qoziqli barabanining sxemasi:

1-jadvaldagi tajriba natijalaridan ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalagichida tozalash davomiyligini yuqori bo'lishi uning yordamida tozalanadigan tolali o'lik mahsulotini nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlashi mumkinligi, shuning uchun ishchi barabandagi qoziqlarni o'rnatilish qadamini maqbul miqdorini tozalagichning tozalash samaradorligini o'rganish natijalariga qarab aniqlab olingani ma'qulligi haqida xulosa qilindi.

Ma'lumki, tola tozalagichlarni eng kam miqdordagi, o'rtacha miqdordagi va eng ko'p (me'yori bo'yicha ruxsat etilgan) miqdordagi mumkin bo'lgan o'likli chiqindilari ajratilishiga rostlanishi mumkin. Shularni e'tiborga olgan holda, tajribalarni ikkita variantda, ya'ni mumkin bo'lgan eng kam miqdordagi o'likli chiqindilari ajratilishiga rostlanganida tola tozalagichdan ajralib chiqadigan tolali o'likni tozalashda va mumkin bo'lgan eng ko'p miqdordagi o'likli chiqindilari ajratilishiga rostlanganida tola tozalagichdan ajralib chiqadigan tolali o'likni tozalashda o'tkazildi.

Ishlab chiqilgan tozalagich barabanidagi qoziqlarni oʻrnatish qadamini tolali oʻlikni tarkibini oʻzgarishi va tozalash samaradorligiga taʼsirini oʻrganishlar natijasida olingan maʼlumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tozalagichning barabanida qoziqlarni oʻrnatilish qadamini tolali chiqindini tozalash davomiyligiga taʼsiri

Barabanda qoziqlarni oʻrnatish qadami, mm	Ishlab chiqilgan tozalagichda tolali oʻlikni tozalash davomiyligi, min	
	Paxtaning 1-sanoat navida	Paxtaning IV-sanoat navida
200	1,25	1,33
	1,3	1,26
	1,16	1,2
Oʻrtacha	1,23	1,26
250	1,1	1,2
	1,03	0,98
	1,06	1,06
Oʻrtacha	1,06	1,08
300	0,8	0,84
	0,78	0,76
	0,92	0,87
oʻrtacha	0,83	0,82

2-jadvaldagi tajriba natijalaridan koʻrinib turibdiki, ishlab chiqilgan tolali oʻlikni tozalagichi barabanidagi qoziqlarni oʻrnatish qadamini tanlab olingan 200 mm ga teng qiymatidan oshib borishi bilan tozalangan tolali maxsulot tarkibidagi singan chigit, mayda va yirik iflosliklarni miqdori 10,4 % dan 16,6 % gacha koʻpayib bormoqda. Aksincha, tozalangan tolali maxsulotdagi tolali oʻlik va toza tola miqdori esa 89,6 % dan 83,4 % gacha kamayishi kuzatildi. Bunga sabab tolali oʻlik tozalagichi barabanidagi qoziqlarni oʻrnatilish qadamini oshgani sari tolali oʻlikni tozalash davomiyligi kamayib borishini koʻrsatishimiz mumkin.

Mana shu sabablarga koʻra ishlab chiqilgan tolali oʻlikni tozalash samaradorligi ham barabandagi qoziqlarni oʻrnatish qadamini oshgani sari kamayib ketishi aniqlandi. Masalan, ishlab chiqilgan tolali oʻlikni tozalagichi barabanidagi qoziqlarni oʻrnatish qadami 200 mmga teng boʻlganida tozalash samaradorligi 81,8 % ni tashkil etgan boʻlsa, qoziqlarni oʻrnatish qadami 300 mm ga teng olinganida 71,1 % gacha kamaygani aniqlandi.

Ishlab chiqilgan tolali oʻlik tozalagichi barabanidagi qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban oʻqiga nisbatan oʻrnatish burchagini uchta variantda, yaʼni 15⁰, 30⁰ va 45⁰ ga teng boʻlganida va qoziqlarni oʻrnatish qadamini 200 mm ga teng

bo'lgan variantida tajribalar o'tkazildi. Tajribalarni o'tkazish vaqtida tola tozalagichlaridan ajralayotgan tolali o'likni tozalanmasdan avvalgi va tozalangandan keyingi tarkibi o'rganilib, tolali o'likni tozalash samaradorligi aniqlandi.

2-jadval

Tola tozalagichdan ajralib chiqadigan tolali o'likni tozalashgacha va tozalashdan keyin tarkibini o'zgarishiga tozalagich barabanidagi qoziqlarni o'rnatish qadamini ta'siri

Barabanda qoziqlarni o'rnatish qadami, mm	Tolali o'likni tozalashgacha bo'lgan tarkibi, gr/%		Tolali o'likni tozalashdan keyingi tarkibi, gr/%	
	Singan chigit, mayda va yirik iflosliklar miqdori	Tolali o'lik va toza tola miqdori,	Singan chigit, mayda va yirik iflosliklar miqdori	Tolali o'lik va toza tola miqdori
200	5,75/57,5	4,25/42,5	1,02/10,2	8,98/89,8
	5,68/56,8	4,32/43,2	1,11/11,1	8,89/88,9
	5,80/58,0	4,20/42,0	0,98/9,8	9,02/90,2
O'rtacha	5,74/57,4	4,26/42,6	1,04/10,4	8,96/89,6
250	5,75/57,5	4,25/42,5	1,32/11,8	8,68/86,8
	5,68/56,8	4,32/43,2	1,34/12,4	8,66/86,6
	5,80/58,0	4,20/42,0	1,36/12,2	8,64/86,4
O'rtacha	5,74/57,4	4,26/42,6	1,34/13,4	8,66/86,6
300	5,75/57,5	4,25/42,5	1,60/16,0	8,4/84
	5,68/56,8	4,32/43,2	1,73/17,3	8,27/82,7
	5,80/58,0	4,20/42,0	1,65/16,5	8,35/83,5
o'rtacha	5,74/57,4	4,26/42,6	1,66/16,6	8,34/83,4

Izoh: jadvaldagi ma'lumotlarning suratida keltirilgan miqdorlar grammlarda, maxrajida esa mos ravishda foizlarda ko'rsatilgan.

Tajribalar natijalari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadvalda keltirilgan tajriba natijalaridang ko'rinib turibdiki, ishlab chiqilgan tolali o'lik tozalagichi barabanidagi qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o'qiga nisbatan o'rnatish burchagini 15⁰ dan 30⁰ gacha bo'lgan qiymatigacha tolali o'likni tozalash samaradorligi qisman oshib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Ya'ni, masalan, paxtaning 1-sanoat navida tolali o'likni tozalash samaradorligi 84,8 % dan 85,6 % ga oshgan. Lekin, ishlab chiqilgan tolali o'lik tozalagichi

barabanidagi qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o‘qiga nisbatan o‘rnatish burchagini 30⁰ dan 45⁰ gacha oshirilganida tolali o‘likni tozalash samaradorligi 85,6 % dan 81,9 % ga kamayib ketishi aniqlandi.

3-jadval

Tozalagichning barabanida qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o‘qiga nisbatan o‘rnatish burchagini tolali o‘likni tozalash samaradorligiga ta’siri

Qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o‘qiga nisbatan o‘rnatish burchagi, grad.	Ishlab chiqilgan tozalagichda tolali o‘likni tozalash samaradorligi, %	
	Paxtaning 1-sanoat navida	Paxtaning IV-sanoat navida
15	84,5	81,2
	85,2	82,4
	84,8	81,9
O‘rtacha	84,8	81,8
30	85,4	82,6
	85,6	83,1
	86,0	82,7
O‘rtacha	85,6	82,8
45	82,3	76,1
	81,8	75,3
	81,7	75,6
o‘rtacha	81,9	75,6

Bunga sabab, qoziqlarni yassilangan tomoni bilan tolali o‘likka urish effektini qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o‘qiga nisbatan o‘rnatish burchagini oshirib borishi bilan kamayib ketishini ko‘rsatishimiz mumkin. Shu sababli qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o‘qiga nisbatan o‘rnatish burchagini 30⁰ dan oshirmaslik maqsadga muvofiq ekan.

Dissertatsiyaning “**Ishlab chiqilgan tolali o‘likni tozalagichini ishlab chiqarishdagi sinovlari va iqtisodiy samaradorligi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida ishlab chiqarish sinovlari natijalari keltirilgan.

Tola tozalagichlaridan ajralib chiqadigan tolali o‘likni bevosita tola tozalagichlardan keyin o‘rnatilishi rejalashtirilgan nazariy va amaliy o‘tkazilgan tajribalarda ishlab chiqilgan takomillashtirilgan o‘lik tozalagichini eksperimental namunasi ishlab chiqilib, tajriba sinovlari Farg‘ona viloyati Beshariq tumani “LUX YaN TEX” MChJ ga qarashli Beshariq paxta tozalash korxonasi paxtani tolasini oqimli tozalash tizimida o‘rnatilgan VPU rusumli tola tozalagichlaridan ajralib chiqadigan tolali o‘likni yig‘uvchi gorizontallentali transporterni oxiriga o‘rnatilib ishlab chiqarishga joriy qilindi.

Sinov ob’ekti sifatida Farg‘ona viloyati Beshariq tumani Beshariq paxta tozalash korxonasi paxtani jinlash va tolaning tozalash uskunalaridan ajralayotgan tolali o‘likni bevosita tola tozalagichlarini tag qismiga o‘rnatilgan lentali transporterning oxiriga o‘rnatilgan tolali o‘lik tozalagichining tajriba nusxasi qaralgan (6-rasm).

Tajriba sinovlarini bir vaqtning o'zida natijalarni olish maqsadida uch komplekt 90 dona arralik jinlar va tola tozalagichlarini tolali o'ligini yig'uvchi gorizontallentali transporterni oxiriga ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalagichi o'rnatildi. Paxtani tozalash UXK tizimining ikkala qatorini sozlanib ishga tushirildi. Tajribalar ishlab chiqarishga uzatilayotgan "Andijon-35" seleksiya navli I va II sanoat navli dastlabki iflosliklari 6,8% dan 8,4%, namligi 8,4 va 9,0 % paxta tarkibidagi chigitni mexanik shikastlanganligi 1,2 va 1,8 % ga teng bo'lgan paxta xom ashyosida o'tkazildi.



6-rasm. Paxtani jinlash va tola tozalash uskunalaridan ajralayotgan tolali o'likni bevosita tola tozalagichlarini tag qismiga o'rnatilgan lentali transporterning oxiriga o'rnatilgan tolali o'lik tozalagichining tajriba nusxasining ko'rinishlari

Paxtani jinlash uskunalarining ish unumdorligi tozalangan paxta xom ashyosi bo'yicha 7,7-8,0 tonna/soatni tashkil etdi. Tola tozalagichlari texnologik reglament bo'yicha tavsiya etilgan (0,6 % dastlabki paxta xom ashyosiga nisbatan) tolali o'likni ajratishga rostlandi. Tajribalarni o'tkazish davomiyligi 15 daq. ga teng bo'lib, takrorlanishlar soni 3 marta ga teng olindi.

Tajribalar natijasida tolali o'likning tarkibida juda ko'p miqdorda iflosliklar (mayda va yirik) 76,2-71,3 % miqdorida bo'lib, bunga qo'shimcha ravishda 4,4-5,9 % gacha singan chigitlar ham bo'lishi aniqlandi.

Tola tozalagichlaridan mumkin bo'lgan eng kam va eng ko'p miqdordagi tolali o'lik ajratiladigan holatlarni taqqoslaganimizda, har ikkala variantda ham tozalangan mahsulotdagi tolali o'lik va toza tola miqdorlari bir-biriga yaqin qiymatlarda, ya'ni eng kam bo'lgan variantda 87-82,4 % va eng ko'p bo'lgan variantda 89,6-83,4 % atrofida saqlanib qolganiga qaramay, tolali o'likni eng ko'p ajratilgan variantida tozalagichning tozalash samaradorligi 81,8 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Amaldagi paxtani dastlabki ishlash texnologik tizimida tola tozalagichlaridan keyin ham va umuman tolali o'lik mahsulotini tozalash uskunalari ishlatilmayotganligi sababli, faqat tozalanmagan va tozalangan o'likli tola mahsulotining erkin bozorda sotilish tannarxi taqqoslandi. Jinlash jarayonida ajraladigan tolali o'lik mahsulotini bevosita tola tozalagichlaridan keyin tozalashni amalga oshiradigan ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalash uskunasi texnologik tizimga joriy etish natijasida olinadigan mahsulot sifatini oshirilishi hisobiga 271,95 mln. so'm iqtisodiy samara olinishi aniqlandi.

XULOSA

1. Bir barabanli 1VPU rusumli tola tozalagichda yuqori va past navli paxta tolasini tozalashda, tozalagichning tozalash samaradorligi uning texnik xarakteristikasidan 6-8% ga kam bo'lib, o'rtacha 21-29% ni tashkil etgan. Tolani tozalashda chiqindining toladorligi texnik xarakteristikasiga qaraganda o'rtacha 10-15% ga yuqori bo'lib, ishlab chiqarilayotgan tolaning miqdoriga salbiy ta'sir etgan.

2. Shnekli-qoziqli barabandagi tolali o'liklardan iflos aralashmalarni ajratishda yo'naltiruvchi qoziqcha sirtidagi tolali o'lik bo'lakchalarini harakatini uzatilishi natijasida tozalash samaradorlikka erishishda ratsional parametrlar tanlab olingan. Bunda shnekli-qoziqli barabanning burchak tezligi $\omega_3 = 150 \frac{\text{a}^{\text{il}}}{\text{min}}$ bo'lganda hamda yo'naltirgich qoziqchani yo'naltiruvchi burchagi $\varphi_3 = 15^\circ$ bo'lganda qoziqchalar sirtidagi tolali o'lik bo'lakchalarini bir tekisda uzatilishini ko'rishimiz mumkin.

3. Qoziqchalarning tolali o'lik bo'lakchalariga ta'siridan urinma va normal yo'nalishdagi tezliklarining tashkil etuvchilari bo'yicha bog'liqliklariga va tiklanish koeffitsientiga bog'liqlik ifodalaridan qoziqli baraban harakatidagi tolali o'likning yo'nalishini o'zgarishini yo'naltiruvchi qoziqcha ta'siridagi harakati tenglamalari keltirib chiqarilgan.

4. Tola tozalagichlaridan ajraladigan tolali o'likning paxtaga nisbatan miqdori eng past 0,6 % ni tashkil etishini qabul qilib, bu miqdor (tola chiqimini o'rtacha 34 % qabul qilinganida) 47,64 kg/soatni tashkil etishini aniqlandi. Bu aniqlangan miqdor 1-navli paxtada 19,4 % ni tashkil etadi. Qolgan qismi o'z-o'zidan ma'lumki singan chigit va iflosliklardan tashkil topishi aniq. Shu sababli ishlab chiqilgan tozalagichga yuboriladigan tolali chiqindini miqdori 245 kg/soatdan kam bo'lmasligini aniqlandi va tozalagichning ish unumdorligi 300 kg/soatdan kam bo'lmasligi maqsadga muvofiqligi ma'lum bo'ldi.

5. Paxtaning 1-sanoat navini dastlabki ishlashda o'tkazilgan tajribalarda barabandagi qoziqlarni o'rnatilish qadami 200 mm ga teng bo'lganida tolali o'likni tozalash davomiyligi o'rtacha 1,23 min ni tashkil etgan bo'lsa, qoziqlarni o'rnatilish qadami 250 mm bo'lganida 1,06 min ga, qoziqlarni o'rnatilish qadami 300 mm ga teng bo'lganida esa o'rtacha 0,83 min gacha kamayib borishi aniqlandi.

6. Ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalagichi barabanidagi qoziqlarni o'rnatish qadamini tanlab olingan 200 mm ga teng qiymatidan oshib borishi bilan tozalangan tolali maxsulot tarkibidagi singan chigit, mayda va yirik iflosliklarni miqdori 12,6 % dan 17,6 % gacha ko'payib bormoqda. Aksincha, tozalangan tolali maxsulotdagi tolali o'lik va toza tola miqdori esa 87,4 % dan 82,4 % gacha kamayishi kuzatildi. Bunga sabab tolali o'lik tozalagichi barabanidagi qoziqlarni o'rnatilish qadamini oshgani sari tolali o'likni tozalash davomiyligi kamayib borishini ko'rsatishimiz mumkin. Shunday qilib, ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalagichi barabanidagi qoziqlarni o'rnatish qadamini 200 mm ga teng bo'lgani maqsadga muvofik ekan.

7. Ishlab chiqilgan tolali o'lik tozalagichi barabanidagi qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o'qiga nisbatan o'rnatish burchagini 15° dan 30° gacha bo'lgan

qiymatigacha tolali o'likni tozalash samaradorligi qisman oshib borganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, masalan, paxtaning 1-sanoat navida tolali o'likni tozalash samaradorligi 84,8 % dan 85,6 % ga oshgan. Lekin, ishlab chiqilgan tolali o'lik tozalagichi barabanidagi qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o'qiga nisbatan o'rnatish burchagini 30⁰ dan 45⁰ gacha oshirilganida tolali o'likni tozalash samaradorligi 85,6 % dan 81,9 % ga kamayib ketishi aniqlandi. Shu sababli qoziqlarni yassilangan qirrasini baraban o'qiga nisbatan o'rnatish burchagini 30⁰ dan oshirmaslik maqsadga muvofiq ekan.

8. Tola tozalagichlaridan mumkin bo'lgan eng kam va eng ko'p miqdordagi tolali o'lik ajratiladigan xolatlarni taqqoslaganimizda, xar ikkala variantda xam tozalangan maxsulotdagi tolali o'lik va toza tola miqdorlari bir-biriga yaqin qiymatlarda, ya'ni eng kam bo'lgan variantda 87-82,4 % va eng ko'p bo'lgan variantda 89,6-83,4 % atrofida saqlanib qolganiga qaramay, tolali o'likni eng ko'p ajratilgan variantida tozalagichning tozalash samaradorligi 81,8 % ni tashkil etishi aniqlandi.

9. Jinlash jarayonida ajraladigan tolali o'lik maxsulotini bevosita tola tozalagichlaridan keyin tozalashni amalga oshiradigan ishlab chiqilgan tolali o'likni tozalash uskunasi texnologik tizimga joriy etish natijasida olinadigan maxsulot sifatini oshirilishi xisobiga 271,95 mln. so'm iqtisodiy samara olinishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.11.2021.Т.141.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКЦИОНЕРНОМ ОБЩЕСТВЕ
“РАХТАСАНОАТ ИЛМИҲ МАКАЗИ”**

ТЕРМЕЗСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЮГАЕВ ШАВКАТ МАНСУНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОГО ОБОРУДОВАНИЯ ДЛЯ ОЧИСТКИ
ВОЛОКНИСТОГО УЛЮКА, ВЫДЕЛЯЕМОГО В ПРОЦЕССЕ
ДЖИНИРОВАНИЯ**

**05.02.03 – «Технологические машины. Роботы, мехатроника и робототехнические
системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером №В2022.2.PhD/T2863.

Диссертация выполнена в Термезском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации находится на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) в веб-сайте ученого совета при АО "Paxtasanoat ilmiy markazi" (www.paxtasanoatilm.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Назиров Рахматжон Расулович
кандидат технических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты: Росулов Рузимурод Хасанович
доктор технических наук, профессор
Мадрахимов Дилшод Усупжонович
доктор философии по техническим наукам (PhD),
старший научный сотрудник

Ведущая организация: Жиззахский политехнический институт

Защита диссертации состоится «22» июля 11⁰⁰ часов 2024 года на заседании научного совета DSc 30/30.11.2021.T.141.01 при АО «Пахтасаноат илмий маркази» по адресу: 100070, г. Ташкент, ул. Шота Руставели, 8. Тел.: (+99871) 207-04-03; факс: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz (Здание акционерного общества «Пахтасаноат илмий маркази», 3-этаж, зал совещаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре акционерного общества «Пахтасаноат илмий маркази» (зарегистрирована за № 35) по адресу: 100070, г. Ташкент, ул. Шота Руставели, 8. Тел.: (+99871) 207-04-03.

Автореферат диссертации разослан «12» июля 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 35 от «12» июля 2024 года).



Т.М.Кулиев

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

М.Р.Муминов

ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
PhD, с.н.с.

Р.Ш.Сулаймонов

Заместитель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Среди натуральных волокон, используемых в текстильной и легкой промышленности во всем мире, хлопковое волокно является основным сырьем. Согласно последним данным Международного консультативного комитета по мировой статистике и хлопку (ICAC), “в четверку экспортеров хлопкового волокна в сезоне 2021-2022 годов входят США, Индия, Австралия и Бразилия, а также страны-импортеры Бангладеш, Вьетнам, Китай, Турция и Индонезия”¹. Применение энергоресурсосберегающих технологий и технических средств для уборки урожая хлопка и очистки хлопка от посторонних примесей занимает одно из ведущих мест. Учитывая, что волокно, получаемое из хлопка, выращиваемого во всем мире, содержит определенное количество волокнистых и посторонних примесей, это требует внедрения в практику оборудования, которое качественно выполняет очистку волокнистого улюка, отделяемых в процессе джинирования. В связи с этим для очистки волокнистого улюка важно высокое качество работы и использование энергоресурсосберегающих технических средств и устройств.

В мире разработка нового оборудования и технологий для переработки хлопкового сырья осуществляется в рамках создания научных основ. В связи с этим большое значение имеет повышение производительности процессов очистки волокнистого улюка, связанных с основными процессами хлопкоочистительных заводов, обеспечение оборудования ресурсосберегающими узлами, с помощью которых можно впоследствии оптимизировать задачи по улучшению количества и качества выпускаемой продукции.

